



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI
TUPROQQAL’A TUMANI HOKIMINING
QARORI**

Tuproqqal’a tuman “Yoshlik” mahallasi Komiljon Otaniyozov ko‘chasi, 1-uy

2024 - yil 26 - yanvar

15-12-218-Q/24

Tuproqqal’a tumani hokimligi

**Tuproqqal’a tumani hokimligi huzurida Jamoatchilik kengashini tuzish
to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-iyuldagi “Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3837-sonli qarori va 2021-yil 4-martdagi “2021 - 2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6181-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Tuproqqal’a tumani hokimligi huzurida Jamoatchilik kengashi qaytadan tuzilsin va 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Jamoatchilik kengashining nizomi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Jamoatchilik kengashi o‘z ishini jamoatchilik asosida olib boradigan, doimiy faoliyat yurituvchi maslahat-kengash organi hisoblanishi, uning faoliyati Tuproqqal’a tumani hokimligida tatbiq etilishi belgilansin.
4. Jamoatchilik kengashi o‘z ish rejalarini belgilangan muddatlarda tasdiqlab, amalga oshirib borsin.
5. Tuman hokimligi axborot xizmati (F.Masharipov) jamoatchilik kengashining ishchi organi sifatida ular faoliyatini tashkiliy-uslubiy va axborot jihatdan ta’minlasin va doimiy ravishda amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.
6. Tuman hokimligi xo‘jalik ishlari mudiri (K.Ro‘zmetov) Jamoatchilik kengashi faoliyati uchun zarur xona va jihozlar bilan ta’minlasin.

8. Tuman hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi (N.Urazbayev) mazkur qarorni tegishli korxona-tashkilotlarga yetkazsin.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmanda qoldiraman.

Tuman hokimi



A.Jimalyazov

Tuproqqal'a tuman hokimining
2024-yil 26-yanvardagi
15-12-218-Q/24-son qaroriga
1-ilova

№	Ism, familiya		Lavozimi
Kengash raisi			
1	Y.Ollaberganov	-	Tuproqqal'a tumani "Nuroni" jamg'armasi raisi
Kengash raisi o'rinbosari			
2	A.Matyaqubov	-	O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi tuman Kengashi raisi
Kengash a'zolari			
3	M.Aminova	-	Tuman hokimi o'rinbosari-oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i
4	F.Seydabdullayeva	-	Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi rahbari
5	M.Alimov	-	Tuman hokimligi ijro intizomi bo'yicha bosh mutaxassisi
6	F.Yaqubov	-	Tuman hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi yetakchi mutaxassisi
7	X.Sultonov	-	Xalq deputatlari Tuproqqal'a tumani Kengashi kotibiyati mudiri
8	O.Abdullayev	-	"Adolat" sotsial demokratik partiyasi tuman Kengashi raisi
9	S.Allayarov	-	Kasb-hunarga o'qitish markazi direktori
10	G' Bobojonov	-	Tuman bosh imom hatibi
Kengash kotibi			
11	Masharipov Furqat Baxodir og'li	-	Tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari

Tuproqqal'a tuman hokimining
2024-yil 26-yanvardagi
15-12-218-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Tuproqqal'a tumani hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi to'g'risidagi NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Tuproqqal'a tumani hokimligi (keyingi o'rinlarda – hokimlik deb yuritiladi) huzuridagi maslahat organi sifatida jamoatchilik asosida ishlaydigan, faoliyati fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan ochiq muloqotni rivojlantirishga qaratilgan Jamoatchilik kengashining (keyingi o'rinlarda – Jamoatchilik kengashi deb yuritiladi) asosiy vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Jamoatchilik kengashi o'z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiruvchi maslahat organi hisoblanib, tuman hokimining qarori bilan tashkil etiladi.

3. Jamoatchilik kengashining Reglamenti tuman hokimining qarori bilan tasdiqlanadi.

2-bob. Jamoatchilik kengashining asosiy vazifa va funksiyalari

4. Quyidagilar Jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari hisoblanadi:

hokimlikning nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorligini ta'minlash, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor faoliyatining eng muhim masalalari yuzasidan jamoatchilik fikrining tizimli monitoringi olib borilishini va har tomonlama tahlil qilinishini amalga oshirish;

hokimlik faoliyatiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni, shuningdek, ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, ularning hokimlik xodimlari o'rtasida muhokamasini tashkil qilishda ishtirok etish;

hokimlik faoliyati samaradorligini takomillashtirish yuzasidan mazkur organda sog'lom ma'naviy-ruhiy holatni, qonuniylik, yuqori huquqiy madaniyat va axloqiylikni ta'minlash borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

hokimlik faoliyati bo'yicha tushuntirish va ma'rifiy ishlarni olib borishni tizimli ishlab chiqish va amalga oshirish;

hokimlik faoliyatining ochiqligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan

chora-tadbirlar monitoringini olib borish.

5. Jamoatchilik kengashi o'zining asosiy vazifalariga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining boshqarma faoliyatiga oid tashabbus va murojaatlarini ko'rib chiqishda ishtirok etadi, ularni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha hokimlikga tegishli takliflar tayyorlaydi;

hokimlik bilan fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining samarali shakl va usullarda o'zaro hamkorligi tahlilini amalga oshiradi, shuningdek, ularni takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi;

hokimlik faoliyatiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni, shuningdek, ichki idoraviy hujjatlarni takomillashtirish, ulardagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi hamda ushbu takliflarni xodimlar o'rtasida muhokama qilish bo'yicha tadbirlarni tashkil qilishda ishtirok etadi;

hokimlikda qonuniylik, yuqori huquqiy madaniyat va axloqiylikni ta'minlash, xodimlarda Vatanga sadoqat va qonunlarga hurmat ruhini kuchaytirish, ularni ijtimoiy, siyosiy, psixologik va ma'naviy-ma'rifiy jihatdan yuksaltirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi, ushbu sohada ma'naviy-ma'rifiy va madaniy tadbirlarni tashkil etishda ishtirok etadi, shuningdek, bu boradagi ilmiy-ma'rifiy va o'quv adabiyotlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

hokimlik faoliyatiga taalluqli, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari, chora-tadbirlar rejalari va boshqa dasturlar loyihalarini ishlab chiqishga doir takliflar tayyorlaydi. Qabul qilingan dasturlarni amalga oshirishda vakolati doirasida ishtirok etadi. Dasturlarda belgilangan chora-tadbirlar, xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar samaradorligini tahlil qiladi hamda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

hokimlik faoliyatini isloh qilishga bag'ishlangan ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlar, seminarlar, «davra suhbatlari»ni tashkil qilishda ishtirok etadi;

hokimlik faoliyatini rasmiy veb-saytlarda hamda ommaviy axborot vositalarida yoritish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijalarini tahlil qiladi, ularning samaradorligini oshirish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

o'ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, shuningdek, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari

hamda fuqarolar bilan hamkorlik qiladi.

hokimlik faoliyatini isloh qilish bo'yicha mamlakat hududida va xorijda amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar haqida muntazam ravishda jamoatchilikning keng xabardor qilinishini ta'minlaydi hamda mavjud muammolarni hal qilish va kamchiliklarni bartaraf qilish haqida takliflar ishlab chiqadi.

3-bob. Jamoatchilik kengashining huquq va majburiyatlari

6. Jamoatchilik kengashi asosiy vazifa va funksiyalarini bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

o'z vakolatlari doirasida hokimlikdan kerakli hujjatlarni, statistik va tahliliy ma'lumotlarni so'rab olish va qabul qilish;

jamoatchilik kengashi vakolatiga tegishli masalalarni hal qilish uchun jamoatchilik kengashi a'zolaridan iborat jamoatchilik komissiyalarini tashkil etish;

hokimlik rahbariyati bilan kelishilgan holda hokimlik tomonidan o'tkaziladigan yig'ilishlar hamda boshqa tadbirlarda ishtirok etish;

xodimlar (xizmatdan bo'shatilgan xodimlar) hamda ular oila a'zolarining konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini o'rganish;

xodimlarning roziligi bilan ularning xizmat o'tash va yashash shart-sharoitlari bilan tanishish;

hokimlik tizimidagi tashkilotlar, shuningdek hududiy bo'linmalar rahbarlariga jamoatchilik kengashi vakolatiga tegishli masalalar bo'yicha takliflar kiritish;

ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va ularga taniqli fan, madaniyat va san'at arboblari jalb qilish;

hokimlik va jamoatchilik kengashi tomonidan tashkil etiladigan tadbirlarga davlat va jamoat arboblari, olimlar, mutaxassislar, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini jalb qilish, shuningdek, ular bilan hamkorlikda tadbirlar tashkil qilish;

jamoatchilik kengashining faoliyati haqida ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish.

Jamoatchilik kengashi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

7. Jamoatchilik kengashi o'z faoliyatini amalga oshirishda quyidagi

majburiyatlarga ega:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlariga va boshqa qonun hujjatlariga hamda mazkur Nizomga amal qilish;

foydalanish doirasi cheklangan toifadagi hujjatlar bilan ishlash qoidalariga qat’iy rioya qilish;

hokimlik faoliyatining mustaqilligi va uning ishiga aralashmaslik tamoyillariga qat’iy rioya qilish.

Jamoatchilik kengashi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham bajarishi mumkin.

4-bob. Jamoatchilik kengashining tarkibi

8. Jamoatchilik kengashining tarkibiga uning raisi, rais o‘rinbosari, kotib va a‘zolar kiradi. Jamoatchilik kengashi o‘z faoliyatini jamoatchilik asosida olib boradi.

9. Jamoatchilik kengashining raisi, rais o‘rinbosari, kotibi jamoatchilik kengashining a‘zolari orasidan tayinlanadi.

Jamoatchilik kengashining tarkibi tuman hokimi tomonidan tasdiqlanadi.

10. Hokimlik xodimlari, faxriylari, nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarining vakillari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining boshqa fuqarolari Jamoatchilik kengashining tarkibiga kiritilishi mumkin.

Jamoatchilik kengashining a‘zolari tuman hokimining qarori bilan ko‘ngilli ravishda nomuayyan muddatga jamoatchilik kengashi tarkibiga kiritiladi va a‘zolikdan chiqariladi.

Jamoatchilik kengashining a‘zolari soni cheklanmaydi.

11. Jamoatchilik kengashi raisi Jamoatchilik kengashi faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi hamda quyidagi vakolatlarni amalga oshiradi:

Jamoatchilik kengashi majlisini chaqirish va kun tartibini belgilash;

Jamoatchilik kengashi majlisiga raislik qilish;

Jamoatchilik kengashining ish rejasi, Jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasi va Jamoatchilik kengashining ish yurituviga oid boshqa hujjatlarini

tasdiqlash;

Jamoatchilik kengashi qarorlarining bajarilishini nazorat qilish;

Jamoatchilik kengashi a'zolarining ularga qo'yilgan topshiriqlarni bajarish ishini va faoliyatini muvofiqlashtirish;

hokimlik rahbariyatiga Jamoatchilik kengashiga kiruvchi shaxslarni uning tarkibidan chiqarish bo'yicha takliflarni kiritish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

12. Jamoatchilik kengashi raisi yo'qligida uning vakolat va vazifalarini jamoatchilik kengashi raisining o'rinbosari amalga oshiradi.

13. Jamoatchilik kengashi raisining o'rinbosari:

Jamoatchilik kengashi raisi bo'lmaganda jamoatchilik kengashi majlislariga raislik qiladi;

Jamoatchilik kengashi qarorlari bajarilishini nazorat qilish ishlarini tashkil etadi;

fuqarolarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qiladi hamda ariza, taklif va shikoyatlarni ko'rib chiqishda ishtirok etadi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

14. Jamoatchilik kengashi kotibi:

Jamoatchilik kengashining majlisiga kerakli hujjatlar o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlaydi;

Jamoatchilik kengashi majlisining kun tartibi bo'yicha o'tishini tashkil etadi;

Jamoatchilik kengashi raisi bilan majlis o'tkazish muddati, joyi hamda taklif qilinuvchilar haqida maslahatlashadi;

Jamoatchilik kengashi a'zolari va taklif qilingan shaxslarni majlis o'tkazish joyi, sanasi va vaqti haqida xabardor qiladi;

Jamoatchilik kengashi qarorlarining bajarilishi monitoringini olib boradi va uning natijalarini Jamoatchilik kengashi majlisida ko'rib chiqish bo'yicha taklif kiritadi;

Jamoatchilik kengashi bayonnomasini rasmiylashtiradi hamda tasdiqlangan

bayonnomani Jamoatchilik kengashi a'zolariga va boshqa manfaatdor shaxslarga yuborilishini ta'minlaydi;

qonun hujjatlari va Jamoatchilik kengashi qarorlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

15. Jamoatchilik kengashi a'zolari:

Jamoatchilik kengashi majlislarida ko'riladigan masalalarni hal qilish va muhokama qilishda o'z vakolatlarini berish huquqisiz qatnashadilar. Jamoatchilik kengashi a'zolari ayrim hollarda jamoatchilik kengashi majlislarida qatnasha olmagan taqdirda o'z fikrlarini yozma tarzda Jamoatchilik kengashi mas'ul kotibiga taqdim etishlari mumkin. Ko'rsatib o'tilgan fikrlar majlisda ko'rib chiqiladi va ovoz berishda hisobga olinadi;

hokimlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va ichki idoraviy hujjatlarni yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadilar;

xodimlar va ularning oila a'zolarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha Jamoatchilik kengashiga takliflar kiritadilar.

5-bob. Jamoatchilik kengashining ishchi organi

16. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari Jamoatchilik kengashining ishchi organi hisoblanadi.

17. Jamoatchilik kengashining ishchi organi:

Jamoatchilik kengashi faoliyatining metodik, tashkiliy-huquqiy, tashkiliy-texnik ta'minot masalalarini hal qiladi;

Jamoatchilik kengashining ish rejalari loyihalarini tayyorlaydi, Jamoatchilik kengashiga ko'rib chiqish uchun kiritadi va tasdiqlangan ish rejasining bajarilishini ta'minlaydi;

Jamoatchilik kengashining navbatdagi majlisiga barcha zarur hujjatlarni tayyorlaydi, hokimlik xodimlaridan kerakli hujjatlar va ma'lumotlarni so'rab oladi;

Jamoatchilik kengashi majlisi kun tartibidagi masalalar bo'yicha tahliliy materiallar tayyorlaydi;

Jamoatchilik kengashi vakolatlariga kiruvchi murojaatlarni ko'rib chiqadi va tegishli hujjatlarni tayyorlaydi;

Jamoatchilik kengashi tomonidan berilgan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

6-bob. Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil qilish

18. Jamoatchilik kengashining faoliyati Jamoatchilik kengashi tomonidan ushbu Nizom asosida ishlab chiqilib, tasdiqlangan Reglamentda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

19. Reglamentda quyidagilar belgilanadi:

Jamoatchilik kengashi a'zolarining uning faoliyatida ishtirok etishi tartibi;

Jamoatchilik kengashi yig'ilishlarini o'tkazilish muddatlari va tartibi;

Jamoatchilik kengashi doimiy ishchi organining ish tartibi;

Jamoatchilik kengashi komissiyasi faoliyati va tuzilishi tartibi, shuningdek, rahbar vakolatlari va uni saylash tartibi;

Jamoatchilik kengashi a'zolarining vakolatlarini to'xtatish va tugatish tartibi;

Jamoatchilik kengashi qarorlarining tuzilishi va ularni qabul qilish tartibi;

Jamoatchilik kengashida tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va tadbirlarni o'tkazish tartibi;

Jamoatchilik kengashi faoliyati tartibiga doir boshqa masalalar.

20. Jamoatchilik kengashi faoliyatining asosiy masalalari Jamoatchilik kengashi majlislarida ko'rib chiqiladi. Jamoatchilik kengashi majlisi Jamoatchilik kengashining ish rejasi asosida kamida har yilda bir marotaba chaqiriladi.

Jamoatchilik kengashi raisi Jamoatchilik kengashi a'zolarining kamida uchdan bir qismining yozma murojaati asosida navbatdan tashqari majlis chaqirishi mumkin.

21. Jamoatchilik kengashi majlislariga milliy madaniy markazlar, do'stlik jamiyatlari, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillari taklif qilinishi mumkin.

Jamoatchilik kengashi majlisiga taklif qilinuvchi shaxslar ro'yxati Jamoatchilik kengashi raisi va Jamoatchilik kengashi a'zolari bilan kelishgan holda Jamoatchilik kengashi kotibi tomonidan shakllantiriladi.

22. Jamoatchilik kengashi majlisining kun tartibi loyihasi Jamoatchilik kengashi a'zolarining takliflari va Jamoatchilik kengashi raisi topshirig'i asosida Jamoatchilik kengashi kotibi tomonidan shakllantiriladi.

23. Jamoatchilik kengashi majlislari uning raisi tomonidan olib boriladi. Rais ishtirok eta olmagan hollarda majlisga uning o‘rinbosari raislik qiladi.

Jamoatchilik kengashi majlislarida tuman hokimi, uning o‘rinbosarlari yoki boshqa xodimlar ishtirok etishi mumkin.

24. Jamoatchilik kengashi majlisi unga taklif qilingan shaxslarning uchdan ikki qismidan kam bo‘lmagan qismi (kvorum) ishtirok etgan taqdirda qonuniy hisoblanadi.

Agar majlis olib borish uchun kvorum shakllanmasa, Jamoatchilik kengashining yangi majlis o‘tkazish sanasi e‘lon qilinadi.

25. Jamoatchilik kengashining qarori uning majlisida qatnashayotgan a‘zolarining oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Agar ovozlar teng kelib qolsa, Jamoatchilik kengashi raisining ovozi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

26. Jamoatchilik kengashi qaror qabul qilishda masalalarni erkin muhokama qilish, ovoz berish, jamoatchilik fikrini inobatga olish, tenglik va kollegiallikka asoslanadi.

27. Jamoatchilik kengashining har bir a‘zosi qabul qilingan qarorga o‘zining fikrlarini yozma tarzda bildirish huquqiga ega. Bunda fikrlar Jamoatchilik kengashi majlisi bayonnomasiga kiritib qo‘yiladi.

28. Jamoatchilik kengashining qarori qabul qilingan kundan boshlab uch kundan kechikmasdan hokimlikka yuboriladi.

Jamoatchilik kengashining qarori tavsiyaviy xarakterga egadir. Agar qaror hokimlik tomonidan ma‘qullanmasa, hokimlik qaror qabul qilingan kundan boshlab o‘n kundan kechikmasdan Jamoatchilik kengashiga asoslantirilgan javobini taqdim qiladi.

29. Tezkor qaror qabul qilish zarurati kelib chiqqanda, Jamoatchilik kengashining qarori Jamoatchilik kengashi raisi tashabbusi bilan Jamoatchilik kengashi a‘zolari bilan maslahatlashilgan holda so‘rov yo‘li bilan qabul qilinishi mumkin.

30. Jamoatchilik kengashi majlisida qabul qilingan qaror majlis bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnoma Jamoatchilik kengashi kotibi tomonidan imzolanadi, majlisga raislik qiluvchi tomonidan tasdiqlanadi hamda uch kunlik muddatda Jamoatchilik kengashi a‘zolariga va boshqa manfaatdor shaxslarga elektron tarzda yuboriladi.

31. Jamoatchilik kengashining ishchi organi va kotibi Jamoatchilik kengashi

a'zolari bilan birgalikda Jamoatchilik kengashi qarorlarini ijro etish yo'llarini tizimli o'rganadi va ko'rib chiqadi, zarur hollarda, Jamoatchilik kengashi raisiga takliflar kiritadi.

32. Ishchi organ Jamoatchilik kengashi qarorlarini ijro etish natijalari haqida har oyda Jamoatchilik kengashi raisiga ma'lumot taqdim etadi.

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

33. Jamoatchilik kengashining moddiy-texnik ta'minoti hokimlik tomonidan, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

34. Jamoatchilik kengashi faoliyati uning nizomiga va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq ekanligi adliya bo'limi boshlig'i tomonidan nazorat qilinadi.

35. Jamoatchilik kengashining qarorlari hamda tuman hokimining Jamoatchilik kengashining faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq qarorlari ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.